BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI BILAN OTA-ONA (VASIY) O‘RTASIDA TUZILGAN SHARTNOMA

Shartnoma № _____

Tuzilgan sana: “___” _____ 202__ yil

Tuzilgan joy: _____

1. Shartnoma tomonlari:

1.1. Yangiyo’l shahar 22-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi (keyingi o‘rinlarda Maktab deb yuritiladi), nomidan Nizaom asosida ish yurituvchi Xasanbayeva Zuxra Uskanbayevna, bir tomondan,

1.2. Voyaga yetmagan o‘quvchi _____ ning ota-onasi (yoki vasiy) F.I.Sh.: _____, (keyingi o‘rinlarda Ota-ona deb yuritiladi), ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar.

2. Shartnomaning predmeti:

2.1. Ushbu shartnomaga asosan, Maktab bolani musiqa va san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan dastur asosida o‘qitishni amalga oshiradi.

2.2. Ota-ona esa bola ta’lim olishi uchun belgilangan narxdagi va tartibdagi to‘lovlarni amalga oshirish va bola darslarga muntazam qatnashishini ta’minlash majburiyatini oladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari:

3.1. Maktabning majburiyatlari:
- 3.1.1. O‘quvchini ta’lim dasturi asosida sifatli ta’lim bilan ta’minlash;
- 3.1.2. Ta’lim jarayonini xavfsiz va sog‘lom muhitda tashkil etish;
-3.1.3. Dars jadvaliga rioya qilish va darslarning belgilangan muddatda o‘tilishini ta’minlash.
- 3.1.4. Agar o‘quvchi uzrli sababsiz dars va mashg‘ulotlarni o‘tkazib yuborsa to‘langan to‘lovlarni qaytarmaslik;
- 3.1.5. Ota-ona to‘lovlarni uzrli sabablarsiz ketma-ket ikki oy to‘lamagan hollarda shartnomani bekor qilish
3.2. Ota-onaning huquq va majburiyatlari:
- 3.2.1. Bolaning darslarga muntazam qatnashishini ta’minlash;

- 3.2.2. O‘quvchining ta’limi uchun to‘lovlarni to‘lash. To‘lovlarni har oyning 15-sanasidan kechiktirmagan holda naqd pul yoki bank o‘tkazmasi orqali pul o‘tkazish
- 3.2.3. Maktab ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;
- 3.2.4. Bola sog‘lig‘i va xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;
- 3.2.5. Maktabning hisob raqamiga xayriya (homiylik) pullarini qo‘shish;
- 3.2.6. Ta’lim jarayoni, ta’lim sifati, shuningdek axloqiy masalalar yuzasidan takliflarni maktab ma’muriyatiga muhokama qilish uchun yuborish;
- 3.2.7. Maktab ma’muriyatining pedagogik kengashlarida ishtirok etish, zarur hollarda ta’lim masalalari bo‘yicha o‘z takliflarini makatab ma’muriyati amalga oshirishni talab qilish;
- 3.2.7. O‘quvchining maktabdan tashqaridagi harakatini ota-onaning o‘zi nazorat qilish;
- 3.2.7. Farzandining harakati bilan maktab mulkiga zarar yetsa, moddiy yoki nomoddiy zarar yetkazgan holatlar uchun ota-ona javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi;
- 3.2.7. Farzandining uy vazifalarini doimiy ravishda kuzatib borish, shuningdek o‘qituvchilarning talablari va tavsiyalariga rioya qilish.

4. To‘lov miqdori va tartibi:

4.1. Ota-ona bola ta’limi uchun oylik to‘lovni belgilangan miqdorda va belgilangan muddatda amalga oshiradi.

4.2. To‘lov miqdori har o‘quv yili boshida Maktab tomonidan belgilanadi va Ota-onaga yozma ravishda yetkaziladi.

5. Shartnomaning amal qilish muddati:

5.1. Ushbu shartnoma “___” _____ 202__ yildan boshlab _____ muddatga tuziladi.

5.2. Tomonlarning kelishuviga ko‘ra shartnoma bekor qilinishi yoki uzaytirilishi mumkin.

6. Nizolarni hal etish:

6.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o‘zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

6.2. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar amaldagi qonunchilikka muvofiq hal etiladi.

7. Shartnomani bekor qilish tartibi:

7.1. Shartnoma tomonlarning o‘zaro roziligi bilan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

7.2. Ota-ona o‘z arizasiga asosan, kamida 5 ish kun oldin yozma ravishda Maktab ma’muriyatiga murojaat qilgan holda, shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

7.3. Maktab quyidagi holatlarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega:

- 7.3.1. Bola uzrli sabablarsiz darslarni muntazam qoldirsa;

-7.3.2. Ota-ona belgilangan to‘lovlarni belgilangan muddatda amalga oshirmasa;

- 7.3.3. Ota-ona yoki bola Maktabning ichki tartib-qoidalariga zid harakat qilsa.

7.4. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, tomonlar o‘zaro hisob-kitobni amalga oshiradi.

8. Yakuniy qoidalar:

8.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, har bir tomonda bittadan nusxasi saqlanadi.

8.2. Shartnoma tomonlarning roziligi bilan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Tomonlarning imzolari:

Maktab nomidan: _____

F.I.Sh.: _____

Lavozimi: _____

Sana: “___” _____ 202__ yil

Ota-ona (vasiy): _____

F.I.Sh.: _____

Sana: “___” _____ 202__ yil